

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILNI  
INTERFAOL O'YINLAR ORQALI O'RGATISH**

*Eraliyeva Odina Ilhom qizi*

[Eralliyevaodina6@gmail.com](mailto:Eralliyevaodina6@gmail.com)

+998-90-683-26-09

*SamDTCHI 2-bosqich talabasi*

**Anatotsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni interfaol o'yinlar orqali o'rgatish jarayoni to'g'risida so'z boradi . Mustaqlikka erishganimizdan so'ng xorijiy tillarni o'rganishga katta e'tibor berila boshladи va bunda maktabgacha ta'lim sohasining o'rni nihoyatda muhimdir.

**Kalit so'zlar:** metod, psixologiya, o'yin, audio.

Bugungi kunda chet tillarini o'rganish hayotimizning ajralmas qismi bo'lib kelmoqda .Turli sohalarda xorijiy tillarni bilish talabi oshib borayotgani sababli ,chet tillarini blishga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda . Bunday bilimlarni dastlab insonlar boshlang'ich va maktabgacha ta'lim muassasalarida o'rganishni boshlaydilar . Va xorijiy tillarni mukammal o'rganishda o'qituvchilarning yuqori ko'nikma va malakasi muhim ro'l o'ynaydi .Shuningdek kichik yoshdagи bolalarga ta'lim berishda turli intelektual o'yinlari asosiy qism hisoblanadi.Ingliz tilini o'rganuvchilarga ularning Yoshi ,bilim darajasi,qiziqishi va salohiyatidan kelib chiqqan holda bosqichma- bosqich o'rgatish samarali usuldir.

Tilni o'rganish ham ma'lum bir yosh davrlariga bo'linadi .Bolalarning miyasi yozilmagan oq qog'ozga o'xshaydi. Agarda ularning miyasini zarur bilimlar bilan to'ldirishni istasak ularga qiziqarli va o'zgacha ko'rindigan shuningdek maroqli tuyuladigan usullardan foydalanishimiz maqsadga muvofiq .Chunki ular yoshlik davridan ayniqsa bog'cha va maktab yoshida turli o'yinlarga moyilligi yuqori bo'ladi .Biron bir uzun va zerikarli jumلالарни yod olishni emas balki , quvnashni xush ko'radilar .Agarda biz ularning e'tiborni tortishni istasak kattalar uchun mo'ljalangan metodlardan foydalanishni to'xtatishimiz zarur.Uning o'rniga turli

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

xil o'yinlar, qo'shiqlar va rasmlar orqali ularga xorijiy tillarni o'rgatish metodlarini o'rganib chiqishimiz kerak.

Hozirda yurtimizda chet tillarga bo'lgan e'tibor ayniqsa ingliz tiliga bo'lgan talab juda yuqori. Shuning uchun bolalarga hali bog'cha yoshidan boshlab o'rgatish muhim masala bo'lib kelmoqda. Chunki ular o'rganish metodlarining yangicha usulini talab qiladilar.Ularga kattalarga o'rgatgandek ingliz grammatikasiga assoslangan kitoblardan o'rgatish ular uchun zerikarlidir.

Shu sababli ularni xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini ortirish uchun quyidagi usullardan foydalanish samaraliroqdir.

-She'r va qo'shiqlar orqali o'rgatish .Ya'ni ular uchun zerikarli bo'lgan mavzularni va aytilishi qiyin bo'lgan so'zlarni kuy va qofiyaga solish orqali.Bunga misol sifatida aifbosining harlarini kuyga solib yodlash samaraliroq va osonroq ekanligini ko'ramiz.

-Rol ijro etish orqali o'qituvchi ba'zi so'zlarni tushunarliroq bayon qilinishi mumkin. Misol uchun, agar hayvonlarning nomimini yod oldirish uchun ularning ingliz tilidagi nomini turli harakatlar orqali namoyishi qilish bolalarning bu so'zlarini eslab qolishning foydaliroq usulidir .

-Xulosa qilib aytganda , agarda murabbiylar yosh bolalarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini ortirmoqchi yoki ularning salohiyatini yuqoriroq qilmoqchi bo'lsa zerikarli grammatik qoidalarning o'rniga turli o'yinlar vositasida o'rgatgani ular uchun foydaliroqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'qitish metodikasi". Ramonova N.R,XolboyevaD.G',Abdurahmonova G.M.
2. "Boshlang'ich ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitish metodikasi". Shuhratova Dilfuza.
3. "The importance of teaching vocabulary". Zubaydova Nilufar.
4. "The teaching of English for specific purposes ". Nilufar Nematillayevna Zubaydova.
5. "Ingliz tilini o'rganayotgan bolalar uchun ta'til". Astafieva M.D.